



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



OQYULOV Omonbay

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik-huquqiy fanlar sho'basi professori,
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq
instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlari doktori, professor
E-mail: o.okyulov@gmail.com

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI MOL-MULKI HUQUQIY REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): OQYULOV O.
Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mol-mulki huquqiy rejimini takomillashtirish
masalalari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 62-72.



4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-007>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada o'zini o'zi boshqarish organlari (FO'BO) mol-mulkining huquqiy rejimini takomillashtirish masalalari ilmiy tahlil etilgan. Mahalla mol-mulkining huquqiy rejimi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomi bilan uzviy bog'liq, shu sababli ham, muallif FO'BOning Konstitutsiyaviy va fuqarolik-huquqiy maqomini tahlil etadi. Xorijiy mamlakatlardagi o'xshash institutlar bilan mahalla huquqiy maqomi qiyoslanadi. FO'BO yuridik shaxs huquqlaridan foydalanuvchi maxsus funksional huquq layoqatiga ega tuzilma degan g'oya qo'llab-quvvatlanadi. Mahalla mol-mulki manbalari, shu jumladan, mahalla o'z tashabbuskorligi va mustaqilligi asosida vujudga keladigan mol-mulklar va davlat tomonidan taqdim etiladigan mablag'lar nisbati qiyosiy tahlil etiladi. Mahalla mol-mulkining tashqi manbalari zarurat, maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazaridan ijobiy baholanadi. Mahalla ko'chmas mol-mulki asosan mulk huquqi asosida FO'BOlarga tegishli ekanligi mahalla huquqiy maqomini mustahkamlashi asoslantiriladi. Muallif fikricha, mahalla faoliyat yuritayotgan binolar garovga qo'yilishi yoxud boshqacha tarzda begonalashtirilishi qonunda taqiqlab qo'yilishi lozim. Mahalla mol-mulkini boshqarish kvazekorporativ taomillar asosida amalga oshirilishi va bu borada mahalla fuqarolar yig'ini mutlaq vakolatlari belgilab qo'yilishi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, munitsipal tuzilmalar, fuqarolar yig'ini, fuqarolar yig'ini raisi, mahalla mol-mulki, ko'chmas mulk, kvazekorporativ taomillar, mahalla-xususiy sheriklik, operativ boshqarish huquqi, ijara huquqi, mol-mulkdan tekin foydalanish huquqi.

ОКЮЛОВ Омонбай

Заслуженный юрист Республики Узбекистан,
Профессор сектора Гражданско-правовых наук
Ташкентского государственного
юридического университета, главный
научный сотрудник Института государства и
права Академии наук Узбекистана,
доктор юридических наук, профессор
E-mail: o.okyulov@gmail.com

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОГО РЕЖИМА ИМУЩЕСТВА ОРГАНОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАН

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье проведён научный анализ вопросов совершенствования правового режима имущества органов самоуправления граждан (ОСГ). Правовой режим имущества махалли неразрывно связан с правовым статусом органов самоуправления граждан, в связи с чем автор анализирует конституционно-правовой и гражданско-правовой статус ОСГ. Правовой статус махалли сопоставляется с аналогичными институтами зарубежных государств. Поддерживается идея о том, что ОСГ представляют собой структуру, обладающую специальной функциональной правоспособностью и пользующуюся правами юридического лица.

Проводится сравнительный анализ источников формирования имущества махалли, в том числе соотношения имущества, возникающего на основе инициативы и самостоятельности самой махалли, и средств, предоставляемых государством. Внешние источники формирования имущества махалли положительно оцениваются с точки зрения необходимости и целесообразности. Обосновывается, что принадлежность недвижимого имущества махалли органам самоуправления граждан преимущественно на праве собственности способствует укреплению правового статуса махалли. По мнению автора, здания, в которых осуществляют деятельность органы махалли, должны быть законодательно запрещены от передачи в залог либо отчуждения иным способом. Предлагается осуществлять управление имуществом махалли на основе квазикорпоративных механизмов, а также закрепить в законодательстве исключительные полномочия схода граждан махалли в данной сфере.

Ключевые слова: органы самоуправления граждан, муниципальные образования, сход граждан, председатель схода граждан, имущество махалли, недвижимое имущество, квазикорпоративные механизмы, государственно-частное партнёрство в махалле, право оперативного управления, право аренды, право безвозмездного пользования имуществом.

OMONBAY Okyulov

Honored Lawyer of the Republic of Uzbekistan,
 Professor of Tashkent State University of Law,
 Chief Researcher at the Institute of State and Law of the
 Academy of Sciences of Uzbekistan,
 Doctor of Legal Sciences, Professor
 E-mail: o.okyulov@gmail.com

ISSUES IN IMPROVING THE LEGAL REGIME OF THE PROPERTY OF CITIZENS' SELF-GOVERNMENT BODIES

ANNOTATION

This scientific article provides a scholarly analysis of the issues related to improving the legal regime of the property of Citizens' Self-Government Bodies (CSGBs). The legal regime of mahalla property is inextricably linked to the legal status of citizens' self-government bodies; therefore, the author analyzes the constitutional and civil legal status of CSGBs. The legal status of the mahalla is compared with similar institutions in foreign countries. The article supports the view that CSGBs constitute entities with special functional legal capacity and enjoy the rights of a legal entity.

A comparative analysis is carried out of the sources of mahalla property formation, including the correlation between property generated through the initiative and independence of the mahalla itself and funds provided by the state. External sources of mahalla property are positively assessed from the standpoint of necessity and expediency. It is substantiated that the ownership of the mahalla's immovable property by citizens' self-government bodies primarily on the basis of the right of ownership contributes to strengthening the legal status of the mahalla. According to the author, the buildings in which mahalla bodies operate should be legally prohibited from being pledged or otherwise alienated. It is proposed that the management of mahalla property be carried out on the basis of quasi-corporate mechanisms and that the exclusive powers of the mahalla citizens' assembly in this sphere be established by law.

Keywords: citizens' self-government bodies, municipal entities, citizens' assembly, chairperson of the citizens' assembly, mahalla property, immovable property, quasi-corporate mechanisms, public-private partnership in the mahalla, right of operational management, lease right, right of gratuitous use of property.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda O'zbekiston Respublikasi xalqiga 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnomasida 2026-yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilindi va ushbu sohada amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalar belgilab qo'yildi. Prezidentimiz tomonidan bunda birinchi ustuvor yo'nalish sifatida mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda albatta davlat resurslari asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Biroq, bunda mahalla mol-mulkidan samarali foydalanish, uni har tomonlama mustahkamlash va ko'paytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmashimiz lozim. Shu munosabat bilan o'zini o'zi boshqarish organlari mol-mulkining fuqarolik-huquqiy rejimini ilmiy jihatdan tahlil etish, ushbu mol-mulkning vujudga kelish manbalari, tarkibiy qismlari, ulardan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash masalalari sivilistik tadqiqotlarning muhim mavzusi bo'lib hisoblanadi.

O'zini o'zi boshqarish organlari davlatlashib ketayotgani, boqimanda bo'lib qolayotgani haqidagi xavotirlarning tahlili ham mavzu bilan uzviy bog'liq.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z mohiyatiga ko'ra, jamoat-huquqiy tuzilma hisoblanadi. Jamoat-huquqiy tuzilmalarning fuqarolik muomalasida ishtiroki ularning huquq layoqati hajmi bilan bog'liq. Bu masala bo'yicha T.A.Tereshchenka ularni maxsus huquq layoqatiga ega va bunda

faoliyat maqsadlari, jamoat manfaatlari bilan huquq layoqati cheklanadi deb ko'rsatadi. S.P.Grishayev [1] ham, Ye.A.Suxanov [2] ham xuddi shunday nuqtayi nazarni tasdiqlashadi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda munitsipal tuzilmalar (mahalla ham shartli ravishda ular tarkibiga kiradi deb hisoblanadi) funksional fuqarolik-huquqiy subyektlikka ega degan qarashlar mavjud. Jumladan, V.G.Golubsov ularning fuqarolik muomalasidagi ishtiroki ularning funksiyalarini amalga oshirish holatlari bilan bog'liq va bu funksional huquqiy layoqat deb ko'rsatadi. Jamoat-huquqiy tuzilmalar xususiy huquq subyektlari kabi erkin harakat qila olmaydi. Ular faqat qonun bilan belgilangan vazifalar doirasida harakat qiladi [3]. X.Qilichevning fikricha, jamoat-huquqiy tuzilmalarning fuqarolik-huquqiy subyektligi faqat maqsadlar bilan cheklanmaydi. Ular o'z huquqiy subyektligi hajmini mustaqil ravishda kengaytirishi mumkin [4]. Binobarin, deyarli barcha mualliflar FO'BO maxsus huquq layoqatiga ega deb hisoblaydilar. Umuman olganda, ommaviy- huquqiy subyektlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda maqomi masalasida turlicha qarashlar mavjud. Ba'zi mualliflar davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida umuman fuqarolik-huquqiy subyektlilik maqomi yo'q va ular fuqarolik munosabatlari mustaqil ishtirokchilari bo'lmaydilar [5] deb hisoblaydilar. Bunga qarama-qarshi ravishda I.V.Nikifirov, V.A.Boldirev, T.I.Illarionova munitsipal organlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti, yuridik shaxs sifatida maqomga ega deb hisoblaydilar.

Uchinchi yondashuvga ko'ra, mualliflar alohida huquqiy maqom, ya'ni ommaviy-huquqiy shaxs maqomini joriy etish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin deb hisoblaydilar. Ushbu maqom hokimiyat organlariga muayyan fuqarolik huquqlarini taqdim etadi, lekin ular imperativ vakolatlar bilan chegaralanadi [6]. V.A.Slisenkovning ta'kidlashicha, davlat organlari fuqarolik- huquqiy munosabatlar sohasida iroda erkinligi va o'z manfaatlariga ega bo'la olmaydi. Shuning uchun ular davlatning bir qismi sifatida qaraladi, davlat organining fuqarolik huquqi bilan himoya qilinadigan har qanday manfaati davlatning umumiy manfaati sifatida tushunilishi lozim [7]. X.Qilichevning fikricha, FO'MO bu mahalliy aholining o'zini o'zi boshqarish huquqini amalga oshirish uchun tashkil etilgan avtonom hududiy demokratik institutlarning ommaviy manfaatdagi vazifalarni bajarish, mahalliy jamoaviy ehtiyojlarni qondirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida, o'zlariga yuklatilgan vakolatlar chegarasida va qonun belgilagan tartibda fuqarolik-huquqiy munosabatlarida mustaqil ishtirok etish layoqati va huquqi bo'lib, u dual (ikki qirrali) tabiatga ega hamda ommaviy hokimiyat va xo'jalik, fuqarolik elementlarini birlashtirgan funksional maqsadli hududiy subyektlilik shakli hisoblanadi [8]. Xorijiy mualliflar ham bu masalada o'z nuqtayi nazarlarini bayon etganlar. O.V.Kuzmenko, K.V.Aranovskiy AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Fransiyada shakllangan mahalliy va o'zini o'zi boshqarish tizimiga oid konseptual yondashuvlarni tahlil etar ekan, Buyuk Britaniyada 1974-yilda qabul qilingan "Local Government Act", Fransiyada esa 1982-yilda ikkinchi marta qabul qilingan 82-213-sonli qonun mavjud. Yevropa mahalliy o'zini o'zi boshqarish Xartiyasining 9-moddasi mahalliy organlarni mol-mulkka egalik qilish va undan mustaqil foydalanish, shu jumladan, moliyaviy resurslarni erkin boshqarish huquqini kafolatlaydi. Shuningdek, BMTning 2016-2030-yillar uchun Barqaror rivojlanish maqsadlarida 17 ta global maqsad belgilangan bo'lib, unga ko'ra, davlat, xususiy sektor va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida sheriklik shartnomalari tuzish zarurligi aytilgan. Xalqaro darajada mahalliy o'zini o'zi boshqarish Birlashgan shaharlar va mahalliy hokimiyatlar (UCLG) tashkiloti orqali namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifalari mahalliy o'zini o'zi boshqarishni jahon miqyosida himoya qilish va targ'ib qilish hisoblanadi. AQSHda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi funksiyalari iqtisodiy sohani qamrab oladi. Munitsipalitetlar o'z korxonalari, xizmatlari va mol-mulkini boshqaradi. Uy-joy qurish bilan shug'ullanadi va o'z mol-mulkini ijaraga berishga haqli. Fransiyada mahalliy o'zini o'zi boshqarish faoliyati 1982-yil 2-martdagi kommunalar, departamentlar va regionlarning huquq va erkinliklari to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Bunda munitsipal kengashlarga yuridik shaxs maqomi beriladi. Yaponiyada mahalliy o'zini o'zi boshqarish tuzilmasi ikki bosqichli hisoblanadi, birinchi bo'g'in prefekturalar, ikkinchisi munitsipalitetlar. Yaponiya Konstitutsiyasining 94-moddasiga ko'ra mahalliy hokimiyat organlari o'z mol-mulkini boshqarish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish va ma'muriy boshqaruvni amalga oshirish huquqlariga ega.

Yu.V.Kondrashov FO‘BO fuqarolik funksiyalarini tashkiliy-huquqiy shakl prizmasi orqali izohlashga urinadi. Biroq uning zaif nuqtasi shuki, FO‘BO funksiyalari birinchi navbatda aholi mandati va mahalliy ehtiyojlar orqali belgilanadi [9].

Dual tabiat yondashuviga ko‘ra FO‘BO bir vaqtning o‘zida ham ommaviy-huquqiy subyekt ham xususiy-huquqiy subyekt hisoblanadi. Bunday yondashuv Yevropada 1985-yilda qabul qilingan Yevropa mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish Xartiyasi va Germaniyadagi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish (Municipal self- government) doktrinasida keng qo‘llaniladi. Fransuz va italyan huquqshunoslari FO‘BOni korporativ yuridik shaxs sifatida ham talqin etadilar [10].

FO‘BOning fuqarolik-huquqiy maqomini belgilashda ularning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida [11] ham FO‘BOning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi ikki xil huquqiy maqom orqali talqin etiladi. Konstitutsiyaning XIII-bobida fuqarolik jamiyati institutlari tizimi belgilab qo‘yilgan. Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi deb ko‘rsatiladi. (69-modda) Konstitutsiyaning XXI-bobida mahalliy davlat hokimiyati organlari asoslari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan bog‘liq ravishda huquqiy mavqei belgilanadi. Biroq Konstitutsiyaning 127-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va an‘analardan kelib chiqqan holda qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli. Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi deb belgilab qo‘yilgan. Bu esa FO‘BOning ikki yoqlama huquqiy tabiatini o‘zida mujassamlaydi. FO‘BOning fuqarolik-huquqiy maqomining shakllanishida uning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini hisobga olish lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida FO‘BOning mol-mulki huquqiy rejimiga ta‘sir qiladi.

Mahalla mol-mulkining fuqarolik-huquqiy rejimini belgilashning dastlabki huquqiy asosi 1990-yil 31-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonunning [12] 4-moddasida o‘z ifodasini topgan edi. 4-modda 1-qismining 3-bandiga ko‘ra, mahalla mulki kollektiv mulkining bir shakli sifatida belgilab qo‘yilgan. Ushbu qonunning 10-moddasi mahalla mol-mulki tarkibi va subyektlari masalasini aniqroq belgilashga harakat qilingan. Unga ko‘ra, Ijtimoiy o‘zini o‘zi boshqarishning boshlang‘ich bo‘g‘inlari – mahallalar egalik qiladigan, foydalaniladigan va tasarruf etadigan mol-mulk, mahalla aholisining birgalikdagi mehnat faoliyati yoki ularning mushtarak daromadlari, shuningdek mazkur mol-mulkdan xo‘jalik maqsadlarida foydalanishdan kelgan tushumlar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari, moddiy va xayriya yo‘sinidagi yordamlari, xalq deputatlari mahalliy Sovetlari beradigan moddiy va moliyaviy resurslar asosida vujudga keltirilgan mol-mulkdan iborat.

Mahallada istiqomat qiluvchi aholi mahalla mulkining subyektidir. O‘zi saylab qo‘ygan organlar – mahalla mulkini to‘la xo‘jalik yuritish asosida egallaydi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, o‘z vaqtida ushbu qonun mahalla mulkiga nisbatan to‘la xo‘jalik yuritish huquqi rejimini belgilaydi. Albatta, o‘z davri uchun bu ijobiy holat. Chunki odatda davlat muassasalariga davlat mol-mulki operativ boshqaruv huquqi asosida birlashtirib qo‘yilgan. Davlat korxonalariga esa davlat mol-mulki to‘la xo‘jalik yuritish huquqi asosida birlashtirib qo‘yilgan. To‘la xo‘jalik yuritish huquqi ash-yoviy huquqning bir turi bo‘lib, vakolatlar hajmiga ko‘ra mulk huquqiga juda yaqin turadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qonun chiqaruvchi mustaqilligimizning ilk davrlaridanoq mahalla mulkiga nisbatan o‘zini o‘zi boshqarish organlariga kengroq erkinliklar taqdim etgan. Bu o‘rinda shuni eslatib o‘tish o‘rinliki, 2025-yil 27-fevraldagi O‘RQ 1025-sonli qonunga asosan FK 165-moddasidan xo‘jalik yuritish huquqi chiqarib tashlandi. Biroq Mulkchilik to‘g‘risidagi qonunda xo‘jalik yuritish huquqi to‘g‘risida emas, to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi to‘g‘risida gap boradi. To‘liq xo‘jalik yuritish huquqi mazmuni Sovet Ittifoqining so‘nggi davrlarida SSR ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar fuqarolik qonunchilik Asoslarida

(1991-yil 27-mayda) belgilab qo'yilgan edi. Albatta, ushbu tarixiy genezis mahalla mol-mulki huquqiy rejimi qanday evolyutsiya jarayonini boshdan kechirganini ko'rsatib beradi.

Bu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy: mahalla mol-mulki jamoa (kollektiv) mulki sifatida o'zining muayyan xususiyatlarini saqlab qolganmi? Buni aniqlash uchun mahalla fuqarolar yig'ini raisi, fuqarolar yig'ini kengashi va fuqarolar yig'ini vakolatlarini qiyosiy tahlil qilmoq lozim bo'ladi. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining [13] 11-moddasiga ko'ra, u fuqarolar yig'ini dasturini va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi. Markazlashgan tarzda ajratiladigan davlat mablag'laridan qonunchilikda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanishini ta'minlaydi. Qonunda rais va kengash vakolatlari tarkibida muayyan mulkiy xarakterdagi vakolatlar ham o'z ifodasini topgan. Biroq ular cheklangan xarakterga ega bo'lib, mahalla mol-mulki o'zi xohlagan tarzda tasarruf qilish imkonini bermaydi. Binobarin, o'zini o'zi boshqarish organlari mol-mulki jamoa mol-mulki sifatida huquqiy tabiatga ega va to'laqonli mulkdor vakolatlari o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolar yig'iniga tegishli bo'ladi.

Umuman fuqarolar yig'ini va kengashi vakolatlari hajmi, ularni amalga oshirish usullari va vositalaridan kelib chiqqan holda shartli ravishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida korporativ boshqarish elementlari mavjud deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan O'RQ 350-sonli "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi 3-qismiga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi. Har qanday yuridik shaxs fuqarolik muomalasining to'laqonli subyekti hisoblanadi. Ushbu qonunning 4-bobi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining iqtisodiy asoslariga bag'ishlanadi. Qonunning 26-moddasiga binoan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mol-mulki huquqiy rejimi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan barpo etilgan, olingan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan jamoat, ijtimoiy-maishiy obyektlar va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan obyektlar, shuningdek transport vositalari, xo'jalik anjomlari va boshqa ko'char hamda ko'chmas mol-mulk ularning mulkidir. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mulki daxlsizdir va qonun bilan qo'riqlanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z mulki bo'lgan obyektlarni vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berishga, ijaraga topshirishga, belgilangan tartibda o'z tasarrufidan chiqarishga, shuningdek qonunchilikka muvofiq ushbu obyektlar bilan bog'liq boshqa bitimlar tuzishga haqlidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kommunal xizmatlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanadi.

O'zini o'zi boshqarish organlari joylashgan binolar ko'chmas mulk sifatida qonunda belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasiga mahalla aholisi tomonidan hashar bilan qurilgan va tegishli kadastr hujjatlariga ega bo'lgan taqdirda mulkdor hisoblanadi. Mamlakatimizda bunday mahallalar ko'plab uchraydi. Ba'zi o'zini o'zi boshqarish organlariga mahalla idoralari uchun binolar operativ boshqarish huquqi orqali biriktirib qo'yilgan. Shuningdek, ayrim mahallalarda choyxonalar, prokat punktlari, novvoyxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish punktlari mavjud. Ular o'zini o'zi boshqarish organlari yakka muassisligidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar sifatida faoliyat yuritadilar yoxud ular bevosita o'zini o'zi boshqarish organlarining tarkibiy bo'linmasi sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Masalan, poyabzal ta'mirlash ustaxonalari, to'ylar va boshqa marosimlar uchun stol-stullar, idish-tovoqlar va boshqa zaruriy inventarlarni ijaraga beruvchi prokat punktlari. Shuni ta'kidlash o'rinliki, yuqoridagi mol-mulklarga ega bo'lgan mahallalar ushbu mol-mulklardan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida foydalanadi deb aytish to'g'ri bo'lmagan bo'lar edi. Bu yerda ko'proq ular oladigan to'lovlar xarajatlarni qoplash tamoyili asosida belgilangan to'lovlardan iborat bo'ladi. Ba'zi hollarda buyurtmachilar ijtimoiy holatidan kelib chiqib, ular kam ta'minlangan yoki nochor oila hisoblansa, ularga tekin xizmat ko'rsatish amalga oshirilishi o'z-o'zidan ravshan. Garchi ilgari o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z xarajatlarni o'zi qoplash asosida faoliyatini tashkil etish asosiy yondashuv sifatida ko'rilgan, mahalla ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita yoki bivosita shug'ullanishi

mumkin yoki lozim degan yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish texnologiya va ko'nikmalari to'g'risida muayyan tadqiqotlar, taklif va mulohazalar ommaviy axborot vositalarida, ilmiy adabiyotlarda muhokama etilgan bo'lsa-da, keyingi paytlarda o'zini o'zi boshqarish organlari asosan davlat ta'minoti moliyaviy resurslari hisobidan o'z xarajatlarini qoplashiga ko'nikish hosil bo'lganday bo'lib ko'rinadi.

O'zini o'zi boshqarish organlari rahbar kadrlariga davlat mablag'lari asosiy moliyaviy resurs bo'lgan manbalar hisobidan maosh to'lash tizimi amal qiladi. Albatta, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash, ularni bozor stixiyasidan preventiv himoya qilish muhim vazifa hisoblanadi, lekin bu holat o'zini o'zi boshqarish organlarining davlatlashuviga va eng achinarlisi, boqimandalik holatiga tushishiga olib kelmasligi lozim. Aholidan kommunal to'lovlarni undirishda o'zini o'zi boshqarish organlarining ko'maklashish faoliyati tizimli yo'lga qo'yilgan mahallalar mavjud. Homiylikka majburlaganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarining qonunlarda belgilab qo'yilganligi o'zini o'zi boshqarish organlarining bu sohada anchayin ehtiyotkor bo'lishiga sabab bo'lmoqda. FK [14] ning hadya va xayr-ehson to'g'risidagi normalari, "Homiylik to'g'risidagi" qonun, "Metsenatlik to'g'risidagi" qonun mahalla miqyosida qo'llanishi o'ta zaif holatda ekanligini e'tirof etmoq o'rinlidir. Holbuki, bu borada juda katta rezervlar, potensial imkoniyatlar mavjudligini qayd etmoq lozim.

O'zini o'zi boshqarish organlarining mulkiy holatini yaxshilash, qo'shimcha daromadlar olish imkonini beradigan yana bir manba bu ichki turizm obyektlarini aniqlash, boshqarish, tegishli infratuzilmani tashkil etish, tadbirkorlik subyektlari va boshqa subyektlar bilan birgalikda ulardan foydalanishni tashkil etish hisoblanadi. Mamlakatimizda ichki turizm obyektlari reyestri yuritiladi. Biroq mahalliy miqyosdagi juda ko'p xushmanzara, ko'ngilochar hududlar, kichik ziyoratgohlar, tabiat yodgorliklari, madaniy meros obyektlari yo reyestrda kirmagan yo unda formal ravishda qayd etilib, ulardan foydalanish stixiyali ravishda o'z holiga tashlab qo'yilgan, xufyona iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lib qolgan holatlar ham uchraydi. Bu obyektlarning ba'zilar doimiy, ba'zilar mavsumiy faoliyat yuritadi. Masalan, ziyorat ichki turizmida aziz avliyolar dafn etilgan qabrlar, daxmalar, maqbaralar yil o'n ikki oy davomida ziyoratgoh bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ba'zi tabiiy yodgorliklar ham, masalan, g'orlar, qadimiy ulkan noyob daraxtlar, chashmalar, buloqlar, qumtepalar, tepaliklar, mahalliy aholi yoki aholining ba'zi qatlamlari tomonidan muayyan folklor qahramonlari, diniy ulamolar, tarixiy voqealar va shu kabilar bilan bog'liq ravishda ziyorat qilish, dam olish, muayyan marosimlarni amalga oshirish uchun joylar vazifasini o'taydi. Ba'zi hollarda ularning etimologiyasi bilan bog'liq noaniqliklar mavjud. Bunday hollarda ushbu maskanlarda faoliyat yurituvchi shaxslar o'zlari bilib-bilmagan holda tarixiy faktlarni, ilmiy va badiiy voqelikni buzib ko'rsatish yoki talqin etish, ziyoratchilarning ishonchiga kirib, ularning xayr-ehsonlarini asossiz ravishda o'zlashtirishi, bid'at, xurofotlarni targ'ib qilish kabi holatlarga yo'l qo'yiladi. Mazkur holatlarning oldini olish, ichki ziyorat turizmi obyektlaridan oqilona va maqsadli foydalanish uchun tashkiliy-huquqiy mexanizm mavjud bo'lishi lozim. Bunday tashkiliy-huquqiy mexanizm o'zini o'zi boshqarish organlari g'oyat muhim vazifalarni bajarishga layoqatli bo'lgan eng maqbul va aytish mumkinki, muqobili bo'lmagan organ hisoblanadi. To'g'ri, Turizm to'g'risidagi qonun [15] ning 13-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida:

turizm sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

madaniy meros obyektlarini targ'ib qilishda, turizm salohiyatini saqlash va rivojlantirishda ishtirok etadi;

turizm to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

turizm to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar kiritadi;

turizm sohasidagi davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Biroq ushbu norma o'zini o'zi boshqarish organlarining bu sohadagi potensial imkoniyatlaridan keng foydalanish imkonini bermaydi. Agar ichki turizm ziyoratgohi umumfoydalanishdagi hududlarda, yerlarda joylashgan bo'lsa, bu holda o'zini o'zi boshqarish organlari yuqoridagi norma ta'sir kuchidan foydalana oladilar. Biroq, agarda ular fuqarolarga xususiy mulk huquqi asosida yoxud meros qoldirish

asosida umrbod foydalanish huquqi, ya'ni ashyoviy huquq asosida biriktirilgan yer uchastkalarida joylashgan bo'lsa, bu holda vaziyat ancha murakkablashadi. Ichki turizm obyekti yuridik shaxslarga mulk huquqi yoki ashyoviy huquq, ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan hollarda ham mana shunday ziddiyatli vaziyat vujudga kelishi mumkin. Fikrimizcha, stixiyali tarzdagi xufyona iqtisodiyot ta'siri ostidagi obyektlardan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash uchun o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik vositalarga ega bo'lishlari lozim. Bunday holatda ichki ziyorat turizmi obyektlarini ijtimoiy ijara asosida o'zini o'zi boshqarish organlariga berish yoxud operativ boshqarish yoxud tadbirkorlik subyektlari yoki mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda oddiy shirkat shartnomasi asosida foydalanishni tashkil etish ham maqbul yechim bo'lishi mumkin. Shuni ishonch bilan ta'kidlash lozimki, yuqoridagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlardan birini qo'llash nafaqat turistik obyektlardan oqilona, maqsadli, xavfsiz foydalanishga imkon beribgina qolmasdan, o'zini o'zi boshqarish organlari uchun muhim daromad manbai, ularning ijtimoiy mas'ul sifatida huquqiy maqomining vujudga kelishiga olib keluvchi o'ziga xos fuqarolik-huquqiy konstruksiya sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Mamlakatimiz hayotida o'zini o'zi boshqarish organlari ham ommaviy huquq subyekti, ham xususiy huquq subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Biroq o'zini o'zi boshqarish organlarining xususiy huquq subyekti sifatidagi holati ikkinchi planga o'tib qolish holatlari kuzatilyapti. Holbuki, mahalla fuqarolik jamiyatining o'ziga xos ishtirokchisi. O'zini o'zi boshqarish asosida, ya'ni fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi, mustaqilligiga tayanib o'z faoliyatini tashkil etuvchi tuzilma. O'zini o'zi boshqarish bu mahalla mol-mulkiga nisbatan ham to'liq taalluqlidir. Mahalla mol-mulki qanday asoslarga ko'ra vujudga kelmasin, u mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan o'zini o'zi boshqarish, ya'ni korporativ taomillar asosida boshqariladi va tasarruf etiladi.

O'zini o'zi boshqarish organlari mol-mulking vujudga kelishi va ko'payishida qonunlarda belgilab qo'yilgan keng imkoniyatlardan foydalanib faollik ko'rsatishi, xususiy tushumlar va daromadlar ko'lamini kengaytirishi lozim. Bu borada xayriya va homiylik mablag'larini jalb etish, kichik tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, o'z egaligidagi ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni tashkil etishi lozim. Turizm mahallalari tajribasi keng yo'lga qo'yilayotgani mahalla mol-mulki va daromadlarining kengayishiga xizmat qilishini unutmash lozim.

Mahalla hududida joylashgan va muayyan davlat muassasasi balansida aks ettirilmagan ziyoratgohlar, qadamjolar, tabiat yodgorliklari va xushmanzara joylar mahalla balansiga o'tkazilmog'i maqsadga muvofiqdir. Ulardan foydalanish mahalla bilan tuzilgan shartnoma asosida xususiy tadbirkorlarga va oilaviy turizm tuzilmalari bilan tuzilgan kelishuv asosida amalga oshirilmog'i lozim. Olingan daromadlar taraflar o'rtasida adolatli ravishda taqsimlanmog'i maqsadga muvofiq. Bunday tartibning o'rnatilishi mahalla turistik obyektlarining yaxshi saqlanishi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahalla faollari o'quv kurslarining o'quv modullariga mahalla mol-mulkini ko'paytirish, undan samarali va tejimli foydalanishning huquqiy va iqtisodiy asoslari bo'yicha mavzular kiritilishi va tegishli mutaxassislar dars jarayonlariga jalb etilishi maqsadga muvofiqdir. Albatta, odatda yuridik shaxslar mol-mulki hisobi va hisobdorligi masalasi buxgalteriya xizmati orqali ta'minlanadi. To'g'ri, o'zini o'zi boshqarish organlari shtatlar tarkibida buxgalter lavozimi yo'q. Biroq tumanlar miqyosida bir necha mahallalarga xizmat ko'rsatuvchi buxgalteriya xizmati mavjud. O'zini o'zi boshqarish organlari ushbu buxgalteriya xizmati bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mol-mulk va mablag'larning vujudga kelish manbalari, ularni samarali boshqarish tizimini va tasarruf qilish asoslari bo'yicha ochiq shaffof tizim yaratishlari o'rinli bo'lar edi.

FO'Bolar joylashgan binolar huquqiy rejimi ham turlicha. O'z paytida yer uchastkasi tegishli tartibda ajratib berilgan ba'zi FO'Bolar uchun hashar yo'li bilan binolar qurilgan va keyinchalik mulk huquqi asosida kadastr hujjatlari bo'yicha rasmiylashtirilgan. FO'BOning ba'zi binolari davlat loyihasmeta hujjatlari asosida barpo etilgan va FO'Bolarga bino mahalla idorasi sifatida operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo'yilgan. Mahalla fuqarolari yig'inlari binolarining barchasi ko'ngildagidey deb bo'lmaydi. Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda, 99 ta mahalla o'z binosiga ega emas, yana 84 tasining

binosi shaharsozlik talablariga mos kelmaydi, 4 ta bino esa avariya holatida. Bundan ancha avval 2022-yil yanvar oyida Prezidentimiz mahalla markazlarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish vazifasini qo'ygan edi. Bunda binolarning bir qismiga mahalla yettiligini bepul joylashtirish, qolganini kichik sexlar va servis obyektlari sifatida foydalanish rejalashtirilgan. Xususiy sherik sifatida ishtirok etadigan tadbirkorlarga imtiyoz beriladi va buning evaziga ijtimoiy mas'uliyat yuklanadi [16]. Kelgusida muammolar kelib chiqmasligi uchun ko'p qavatli mahalla markazlari FO'BO va xususiy sherik tadbirkorlar o'rtasida ko'chmas mol-mulkarga nisbatan huquqlar aniq belgilab qo'yilishi lozim. FO'BO ushbu ko'chmas mol-mulk kompleksining muayyan qismiga mulkdor sifatida rasmiylashtirilishi lozim. Qandaydir bepul foydalanish huquqi mavhum xarakterga ega bo'lib, kelgusida mahallaning boshpanasiz qolishiga olib kelishi mumkin. Xususiy sheriklar uchun ham binoning bir qismini mulk huquqi asosida rasmiylashtirilishi ehtimol, maqsadga muvofiq bo'lar. Prokat punktlari, o'quv markazlari binolari, mahalla kutubxonasi, mahalla choyxonasi, daladan do'konga savdo shoxobchalari va shu kabi ijtimoiy infratuzilma obyektlari ham kelgusida xususiylashtirish huquqsiz ijaraga berilishi lozim. Umuman olganda, FO'BOning mahalla markazi bo'lgan ko'chmas mol-mulk kompleksidagi ulushlarini mumkin qadar kattaroq hajmda va mulk huquqi asosida bo'lishi FO'BO moddiy negizini huquqiy kafolatlagan bo'lar edi. 2026-yilda Respublika Mahalla jamg'armasiga 200 milliard so'm ajratildi, shuningdek, mahallalar uchun 300 milliard so'mlik qo'shimcha doimiy daromad manbalari yaratilmoqda. Xususan, mahalla hududida sanitariya va noqonuniy qurilish bo'yicha jarimalarning bir qismi mahalla byudjetlariga yo'naltiriladi. Yer va mol-mulk soliqlaridan tushadigan tushumlar ulushi 10 foizdan 15 foizga oshiriladi. Bo'sh maydonlarni ijaraga berish va ayrim binolarni sotishdan tushadigan mablag'lar ham mahallaning o'zida qoldiriladi. Ushbu mablag'lar birinchi navbatda ichki yo'llarni ta'mirlash, piyodalar yo'lakchalarini tashkil qilish, bolalar va sport maydonchalarini qurish, mahalla bog'larini barpo etish kabi dasturlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Ushbu tadbirlar amalga oshirilgandan keyin, uning natijasida vujudga kelgan obyektlar (sport maydonchalari, bolalar maydonchalari, mahalla bog'lari va shu kabilar) mahalla balansiga qabul qilib olinmog'i va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirib qo'yilmog'i lozim, aks holda kelgusida ularga ko'z tikadigan "olg'irlar" paydo bo'lishi va ushbu obyektlarni o'zboshimchalik bilan yoxud mahallaning ba'zi insofsiz rahbarlari bilan til biriktirib o'zlashtirib olish holatlari kuzatilayotgani hech kimga sir emas. Modomiki, mahalla mol-mulkining vujudga kelish manbalari to'g'risida so'z borar ekan, Fuqarolik Kodeksining 1157-moddasida nazarda tutilgan normani unutmaslik lozim. Ushbu norma ba'zi aholi o'rtasida merosxo'rlar bo'lmagan taqdirda mahalla yettinchi navbatda meros olishga haqli degan tushunchani vujudga keltirgan. Mohiyatan ushbu normaga ko'ra, agar qonun bo'yicha ham, vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlar bo'lmasa yoxud merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining arizasi bo'yicha meros ochilgan kundan e'tiboran uch yil o'tganidan keyin sudning qarori asosida egasiz deb topiladi. Meros mol-mulk, agar uni qo'riqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko'rsatilgan muddat o'tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tadi, bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda, davlat mulkiga o'tadi.

Ushbu holatda yuridik jihatdan aniqlik kiritib aytish mumkinki, meros mol- mulki egasiz mol-mulk huquqiy rejimiga o'tadi va shundan keyin FO'BO yoki davlat ushbu mol-mulkni olish huquqiga ega bo'ladi. FKning 1157-moddasi mazmunidan aniq anglatiriladiki, ushbu holatda FO'BO imtiyozli ustuvor huquqiga ega. U rad etgan taqdirdagina, egasiz mol-mulk davlatga o'tadi. Ushbu satrlar muallifi 2014-2022-yillarda Toshkent shahar hokimligi huzurida mahalla faollarining malakasini oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlari olib borgan. Aksariyat mahalla raislari ushbu norma mazmunidan xabardor, biroq amalda egasiz mol-mulklar aniqlanganda Toshkent shahar hokimligi egasiz mol-mulk joylashgan mahalla fuqarolar yig'ini raislaridan ushbu mol-mulkdan voz kechish haqida hujjat rasmiylashtirishni talab qilganlar va buni ushbu egasiz ko'chmas mol-mulklar mahalla profilaktika

inspektoriga yoxud mahalla hududida istiqomat qiluvchi voyaga yetgan yetimlarga berilishi to'g'risida vaj qilib ko'rsatganlar. Binobarin, FKning 1157-moddasi bergan huquqlardan Toshkent shahridagi FO'BOlari amalda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar. Binobarin, FO'BOlari FKning 1157-moddasida belgilab qo'yilgan huquqlardan amalda foydalanishini ta'minlovchi huquqiy mexanizmga zarurat mavjud.

Mahalla mol-mulki huquqiy rejimini takomillashtirishda o'zini o'zi boshqarish organlarining "davlatlashuvi" ko'rinishlariga barham berish muhim ahamiyatga ega. Albatta, Konstitutsiya bo'yicha o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy boshqaruv tizimiga kiradi va davlat organlari bilan hamkorlikda faoliyatni amalga oshiradi. O'zini o'zi boshqarish organlari ushbu holatda shunchaki topshiriqni bajaruvchi, bo'ysunuvchi organ emas. U mustaqil, o'zini o'zi boshqarishga asoslangan organdir. U davlat bilan hamkorligini ham o'zini o'zi boshqarish asosida amalga oshiradi. Mahalliy davlat hokimiyat idoralarining ba'zi mansabdor shaxslari, afsuski shu oddiy haqiqatni tushunib yetmaydilar va o'zini o'zi boshqarish organlarining ularga tobe, topshiriq bajaruvchi tuzilma sifatida qaraydilar. Bunday holatning vujudga kelishida muayyan ma'noda fuqarolar yig'ini raislari va faollarini qonun bo'yicha o'zlariga berilgan vakolatlar va huquqlardan to'laqonli va samarali foydalana olmayotganliklari ham o'ziga xos sabab hisoblanadi. Mahalla tomonidan olinadigan daromadlarning muayyan katta qismi davlat tomonidan belgilab qo'yilgan tushum manbalaridan hosil bo'lishi va ulardan aniq maqsadli foydalanish masalasi ham oldindan hal etilib qo'yilganligi holatlari mavjudligini e'tirof etish lozim. Lekin shunday hollarda ham FO'BO ushbu mablag'lardan foydalanishni korporativ boshqaruv asosida rasmiylashtirish tartib-taomillarini belgilab qo'yish lozim. Umuman olganda, o'zini o'zi boshqarish organlari mol-mulkini boshqarish, undan foydalanish va tasarruf qilish tartib-taomillari aniq belgilab qo'yilmaganligi sababli mahalla fuqarolar yig'ini raislari tomonidan ushbu masalalarda ba'zan insofsizlik, suiiste'molliklar sodir etilishi, afsuski, uchrab turadi. Shu sababli ham, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiqdir. "Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mol-mulk, shuningdek, ko'chmas mol-mulkka tenglashtirilgan mol-mulk va yirik bitimlarni tuzish, yirik bitimlardan tushgan mablag'larni tasarruf etish faqat fuqarolarning umumiy yig'ini malakali ko'pchilik yoqlab ovoz berishi asosida (ovoz berish huquqiga ega bo'lgan mahalla fuqarolarining uchdan ikki qismi yig'ilishda hozir bo'lgan va ularning to'rtidan uch qismi yoqlab ovoz bergan taqdirda) qaror qabul qilinadi. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik tuzilgan bitimlarni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi" ushbu holat nomiga yig'ilish o'tkazib, mahalla fuqarolar yig'ini kengashlari va raisi tomonidan mahalla mol-mulkiga nisbatan qilinishi mumkin bo'lgan har qanday suiiste'molliklarni oldini olgan bo'lar edi. Ayni paytda ushbu qonunda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan binolar hech qanday asoslarga ko'ra begonalashtirishga yo'l qo'yilmasligi ham belgilab qo'yilmog'i lozim.

Yuqoridagi ilmiy tahlil yakuniy xulosasi sifatida quyidagi g'oyalarni ta'kidlash o'rinli bo'lar edi. FO'BOning huquqiy maqomini belgilashda uning konstitutsiyaviy maqomi va fuqarolik-huquqiy maqomi uzviy bog'liq. Mahallaning davlat bilan hamkorlik qilishi davlatga tobe, boqimanda va davlatlashganligini aslo namoyon etmaydi. Mahallaning davlat bilan hamkorligi tenglikka, mahalla mustaqilligi va tashabbuskorligiga, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining faol ishlashiga aslo to'sqinlik qilmaydi. Mahalla mol-mulkini kengaytiruvchi yangi manbalar sifatida mahalla turizm obyektlari, mahalla-xususiy hamkorlik obyektlari, shuningdek, mahalla choyxonasi, prokat punktlari, maishiy xizmat obyektlaridan olinadigan daromadlar barqaror bo'lishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Mahalla faoliyatini va mol-mulkini haddan ortiq tijoratlashtirishdan tiyilib turish o'rinli bo'lar edi. O'zini o'zi boshqarish organlari maqsad va vazifalarini moddiy jihatdan ta'minlash mahalla mol-mulkidan maqsadli foydalanishning asosiy sharti hisoblanadi. FO'BO faoliyat yuritayotgan binoni garovga qo'yish yoki boshqacha tarzda begonalashtirish qonunda qat'iyon taqiqlab qo'yilishi lozim. Bu esa mahallaning boshpanasiz qolish holatini oldini olgan bo'lar edi. Mahalla fuqarolar yig'ini raislari uddaburon menejer bo'lishlari lozim va bu holat mahalla faollari malakasini oshirish o'quv modullarida hisobga olinishi shart. Mahalla mol-mulkini boshqarishda kvazekorporativ taomillardan samarali foydalanish taklif etiladi. Mahalla mol-

mulkidan foydalanish va uni tasarruf etish bo'yicha mahalla fuqarolar yig'inining mutlaq vakolatlarini qonunda belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. Гришаев С.П., Государство как участник гражданских правоотношении. // СПС «Консультант плюс».
2. Суханов Е.А. Комментарий к Гражданскому кодексу Российской Федерации. (ч 1)/ под редакции Абовой Т.Е. Кобалкина А.Ю. М. Юрайт. 2002. С 78.
3. Голубцов В.Г. Государство как частно правовой субъект: правовая природа и особенности. Журнал Российское право. 2010. № 10. 61-77-стр. // СПС "Консультант плюс" <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvo-kak-chastnopravovoy-subekt-pravovaya-priroda-i-osobennosti>.
4. X.Qilichev. Doktorlik dissertatsiyasi. 33-bet.
5. Осипов А.А. Гражданский правовой статус органов государственной власти и органов местного самоуправления Российской Федерации. Диссертация кандидата юридических наук. Челябинск. 2015 г. 88-б. <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoi-status-organov-gosudarstvennoi-vlasti-i-organov-mestnogo-samoupravleniy>.
6. Чиркин В.Е. Юридическое лицо публичного право. М. Норма. 2007. 118-б. <https://cyberleninka.ru/article/n/2008-03-004-chirkin-v-e-yuridicheskoe-litso-publichnogo-prava-m-norma-2007-352-s>.
7. Слишенков В.А. Участие государство в отношениях регулирование гражданским правом: к вопросу о правовом положении государственных органов. // Вестник гражданского право. 2010 №6. 76-77-б. <https://mvgp.org/product/jelektronnaja-versija-zhurnala-vestnik-grazhdanskogo-prava-2010-6-tom-10/>.
8. X.Qilichev. Doktorlik dissertatsiyasi. 37-bet.
9. Кондрашов Ю.В. Статус органов местного самоуправления при участие гражданских правоотношениях. Диссертация кандидата юридических наук. Тюмень. 2004. 36-б. <https://www.prilib.ru/item/372266>.
10. G.Grosse. 2008. Municipal Corporation in Germany in Italy. <http://www.tandyfonline.com/doi/abs/10.1080/147190308022264275>.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145> (murojaat etilgan sana 30.07.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Mulkchilik to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/acts/-111466> (murojaat etilgan sana 30.07.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/docs/-2156899> (murojaat etilgan sana 30.07.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. <https://lex.uz/mact/-111189> (murojaat etilgan sana 30.07.2026).
14. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4428097>
15. MFY binolarini davlat-xususiy sheriklik asosida qurish taklif etildi. Gazeta.uz <https://share.google/0vHHduclOn1tOkDMN>.

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL